

## **HUDUD IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJY INVESTISIYALARING AHAMIYATI**

**Matkurbanov Tavakkal Zaripbaevich**  
*Qoraqalpog'iston Respublikasi Xujayli tumani 2-maktab*

**Annotatsiya:** *Maqolada mamlakattimizda iqtisodiyotga investitsiyalarni jalg qilish haqida nazariy uslubiy asoslar, investitsiyalarni jalg etilishi va ularni boshqarishning tahlili, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida investitsiyalarni jalg qilish va ularni boshqarish ususllarini takomillashtirish yo'llari keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *investitya, investitsiyani boshqarish usullari, capital qo'yilmalar.*

### **KIRISH**

Milliy iqtisodiyotimizni rivojlantirishda investitsiyalarni jalg qilish va ularni oqilona boshqarish ob'yektiv zaruratdir. Chunki Jahon iqtisodiyotida ham, mintqa yoki mamlakat iqtisodiyoti rivojini investitsiyalarsiz tasavvur qilish mumkin emas . Milliy iqtisodiyotimizni rivojlantirishda investitsiyalarni jalg qilish va ularni oqilona boshqarish ob'yektiv zaruratdir. Chunki Jahon iqtisodiyotida ham, mintqa yoki mamlakat iqtisodiyoti rivojini investitsiyalarsiz tasavvur qilish mumkin emas . Milliy iqtisodiyotimizni rivojlantirishda investitsiyalarni jalg qilish va ularni oqilona boshqarish ob'yektiv zaruratdir. Chunki Jahon iqtisodiyotida ham, mintqa yoki mamlakat iqtisodiyoti rivojini investitsiyalarsiz tasavvur qilish mumkin emas .

Milliy iqtisodiyotimizni rivojlantirishda investitsiyalarni jalg qilish va ularni oqilona boshqarish ob'yektiv zaruratdir. Chunki Jahon iqtisodiyotida ham, mintqa yoki mamlakat iqtisodiyoti rivojini investitsiyalarsiz tasavvur qilish mumkin emas .

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Investisiya faoliyatini moliyalashtirish bir qancha manbalardan xosil bo'ladi. Hozirgi kunda Respublikamizda investisiya faoliyatini moliyalashtirishning quyidagi manbalari mavjuddir:

1. Korxona va jismoniy shaxslar jamg'armalari.
2. Bank kreditlari xisobidan moliyalashtirish.
3. Davlat byudjeti va byudjetdan tashkari fondlar mablag'lari xisobiga moliyalashtirish.
4. Xorijiy investisiyalar.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ma'lumki, xorij kapitali, xususan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalarini jalg etish investisiyalashda eng samarali vosita hisoblanadi. Aynan xorijiy investisiyalar mamlakatda iqtisodiy va texnologik jarayonini harakatlantiruvchi omili bo'lib xizmat qiladi.

Respublika iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalarini jalg qilish faoliyati samaradorligini oshirish, xorijiy investorlarni mamlakatimiz imkoniyatlari va salohiyati to'g'risida xabardor qilish, xorijiy investisiyalarini jalg etish va o'zlashtirish

sohasida davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy ijro hokimiyati organlari faoliyatini muvofiqlashtirishni yaxshilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29-apreldagi PQ-4300 sonli "Respublika iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalarni jalb qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga asosan quyidagi yo'nalishlarda Davlat dasturi belgilab olindi:

- kimyo va neft-gaz sanoati, mashinasozlik sohasidagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, bank-sug'urta tashkilotlari ustav kapitallaridagi davlat aksiyalar (ulushlar) paketlarini sotish;
- to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalarni jalb etish uchun tayyor investisiya takliflarini ishlab chiqish;
- investisiya va biznes forumlar, taqdimotlar («Road Show») va marketing kampaniyalari imkoniyatlardan keng foydalanish;
- davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni tashkil etish.

Investision jozibadorlikni oshirish maqsadida ushbu qaror doirasida chet el investorlariga istiqbolli investisiya loyihalari taklif qilindi:

- Yoqilg'i-energetika va neft-kimyo tarmoqlarida investisiya takliflari (takliflar soni — 20, takliflar qiymati — 4 447,6 mln AQSh.doll.)
- Metallurgiya, mashinasozlik, elektrotexnika tarmoqlari va yengil sanoat sohalarida investisiya takliflari (takliflar soni- 13, takliflar qiymati — 537,3 mln AQSh.doll.)
- Qishloq xo'jaligi va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sohasida istiqbolli takliflar (takliflar soni — 26, takliflar qiymati — 551,2 mln AQSh.doll.)
- Yo'l-transport infratuzilmasi, kommunal uy-xo'jaligi qurilishi va qurilish materiallari ishlab chiqarish sohasida istiqbolli takliflar (takliflar soni — 5, takliflar qiymati — 534,3 mln AQSh.doll.)
- Ijtimoiy, turistik va farmasevtika sohalarida istiqbolli takliflar (takliflar soni — 22, takliflar qiymati — 160,6 mln. AQSh doll.)

Hisobotga ko'ra, 2020 yilda kafolatlanmagan xorijiy kreditlar quyidagi tarmoqlarda investisiya loyihalarini amalga oshirish hisobiga o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,6 barobardan ziyod (2,4 mlrd dollardan 3,5 mlrd dollargacha) o'sdi1, jumladan:

- NKM — 636,5 mln dollar;
- «O'zbekneftgaz» AJ — 154,8 mln dollar («Sho'rtan GKM» MChJ — ishlab chiqarish quvvatini oshirish" — 122,7 mln dollar);
- «O'zeltexsanoat» AJ — 101,8 mln dollar (maishiy muzlatgichlar ishlab chiqarish — 48 mln dollar);
- ATKR vazirligi — 89,4 mln dollar (keng polosali telekommuni-katsiya tarmog'ini rivojlantirish — 35,5 mln dollar);
- «O'zqurilishmateriallari» AJ — 91 mln dollar.

Davlatning investisiya faoliyati, davlatni o'zining funksiyalarini bajarish jarayonida vujudga keladi, ya'ni, iqtisodiy, mudofaa, huquqni himoya qilish, islohotchilik, ekologik, ijtimoiy va boshqalar. Investisiya faoliyati orqali davlat iqtisodiyotning tarkibiy qayta qurilishiga real ta'sir ko'rsatadi, xalq xo'jaligi samaradorligini o'sishini, alohida tarmoq va hududlarni rivojlanishidagi to'sqinliklarni yo'q qilishni, yagona iqtisodiy hududni saqlab qolishni ta'minlaydi.

Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan davlatning markazlashtirilgan kapital quyilmalari faqat quyidagilarga ajratiladi;

- respublika iqtisodiyotini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha investisiya loyihamalarini davlat maqsadli dasturlarini va davlatlararo bitimlarni amalga oshirishga;

- egasining nomi ko'rsatilgan uy-joy obligatsiyalari bo'yicha uy-joy qurilishiga;

- aholi yashaydigan joylarning, birinchi navbatda, yakka tartibda qurilgan uy-joy mavzelarining muhandislik infratuzilmasini rivojlantirishga;

- yangi yerlarni o'zlashtirish va sug'oriladigan yerlarni tiklashga, suv xo'jaligi qurilishi va kichiq gidroenergetikani rivojlantirishga;

- maorif, sog'liqni saqlash, madaniyat va ijtimoiy infrato'zilmasining boshqa tarmoqlari ob'ektlarini qurilishiga;

- davlat boshqaruvi organlari, xuquqni muhofaza qilish organlari, davlat ilmiy muassasalarining moddiy texnika bazasini rivojlantirishga va mustahkamlashga;

- umum davlat tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirishga va tabiiy ofatlardan himoya qilish inshoatlarini qurishga.

Davlat byudjeti hisobidan moliyalashtirildigan markazlashtirilgan kapital qo'yilmalar limitlari quyidagilar hisobiga belgilanadi:

Iqtisodiyotimizda yuz berayotgan tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishda investitsiyalarning muhim ahamiyat kasb etayotganligidan ko'rsatib turibdi. Ushbu raqamlarning toliq ko'rinish quyidagi jadvalda aks ettirilgan.

Har tomonlama qulay investitsiya muhiti korxonalar faoliyat samaradorligiga tasir etib, investitsiyalarni jalb qilish va to'gri boshqarishga xos daromadlarning ortishiga olib boradi. Mamlakatimizda chuqur tarkibiy o'zgarishlar, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha tomonlarini isloh etish va erkinliklar yaratish, iqtisodiyotimizni rivojlantirish va modernizatsiya qilish jarayonlarini jafal suratlar bilan taraqqiy etishiga zamin yaratmoqda.

Ko'plab sabablar tufayli xorijiy investorlarning asosiy qismi iqtisodiyoti o'tish davrida bo'lgan mamlakatlarga qo'yiladigan sarmoyalarga faqatgina dividend va foizlar ko'rinishidagi pul ishlash yo'li deb qaramaydi. Ular bunday sarmoyalarni umumiyy strategiyasining bir qismi, deb hisoblashadi. Xorijiy tadbirkorlarning asosiy maqsadi ertasi bor bo'lgan bozorda mustaxkam o'rnashish, moliyaviy oqimlar ustidan nazorat o'rnatish, import va valyuta cheklashlarini chetlab o'tish va ba'zan raqobatchi korxonani bozordan siqib chiqarishdan iborat. Shu sababli ham xorijiy investorlarga

iqtisodiyotni ko'tarishdagi asosiy harakterlantiruvchi kuch sifatida qarash mumkin emas.

Xorijiy investorlarni jalg etish, chet el tadbirkorlariga imtiyozlar yaratishda, avvalambor, mamlakat manfaatidan kelib chiqish lozim. Shuni nazarda tutish kerakki, agar korxona ustidan nazorat xorijlik tadbirkorlarga tegishli bo'lsa, u holda qaror qabul qilish va daromad mamlakatdan tashqariga kochadi. Korxona egalari nuqtai nazaridan foydali bo'lgan qaror mamlakat iqtisodiyoti uchun zararli bo'lishi mumkin. Misol uchun, agar korxona tugatiladigan bo'lsa, uning xodimlari daromadi ham yo'qoladi, davlat daromadi qisqaradi, buning ustiga, davlat ishsiz xodimlarni ishga joylashtirish harajatlarini oz zimmasiga olishi kerak bo'ladi. Aynan shu sababli ham xorijiy hamkorlarni jalg etish, bu loyihada ishtirok etayotgan barcha tomonlar manfaatdorligi mutanosibligiga asoslanish lozim. Ozbekistondagi va shuningdek, iqtisodiyoti o'tish davrida bo'lgan boshqa mamlakatlardagi korxonalarning ko'plab rahbarlari xorijiy sheriklar bilan hamkorlik qilishga tayyor ekanliklarini bildirishmoqda.

#### Xulosa

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki ushbu izlanishlarni o'rgangan holda mamlakatga investitsiyalarni jalg qilish va boshqarish konsepsiyasining asosida quyidagi muhim yondashuvlar mavjud:

- investitsion faoliyatni tanlash jarayoni sifatida ko'rib, investitsion resurslarni jalg qilish va asoslash hamda investitsiyalash mexanizmini investitsion faoliyatni amalga oshirish maqsadida foydalanish zarur;
- investitsiyalarni jalg qilish va boshqarish obyektning investitsion jozibadorligini baholash bilan amalga oshiriladi;
- turli xil tarmoqlarga investitsiyalarni jalg qilish va ularni boshqarishning usullari tanlanayotganda investitsiyalash jarayonida ishtirok etayotgan investorning manfaatlari mamlakatning manfaatlariga mos kelishini inobatga olish lozim;
- hukumat tomonidan loyihalarni investitsiyalashda aholi va davlat olinadigan natijalardan manfaatdor bo'lishi shu bilan birga ijtimoiy muammolarni hisobga olish talab etiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Saitkamolov M.S. Mamlakatimizdagi korxona va tashkilotlarga jalg qilinayotgan investitsiyalarning asosiy yo'nalishlari // IMamlakatni modernizatsiyalash sharoitida iqtisodiy mutanosibliklarning barqaror iqtisodiy o'sishga ta'siril mavzusidagi ilmiy-amali konferensiya. Toshkent.: 2015 y., 182

2.Митъкин А. Н. Развитие системы государственного стратегического планирования в России // Экономическая наука современной России. - 2008. -№ 2 (41). - С. 55-66.

3.Четверикова А. Территориальная экспансия крупных российских промышленных корпораций: к характеристике новейших тенденций // Российский экономический журнал. - 2007. - № 5- 6.

4.Иноятова М.Ш. Регулирование деятельности инвестиционных фондов в различных странах//Горный вестник Узбекистана, 2007. - №31.

5.Рудько-Силиванов В.В. Практические аспекты инвестирования в модернизацию производственных фондов//Деньги и кредит, 2008. - №8.